

PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Nazarov Ilxom Alimovich

*malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar
kafedrasi katta o'qituvchisi podpolkovnik*

Annotatsiya: *Mazkur maqola bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirishdagi bir nechta xususiyatlariga bag'ishlanadi. Maqola muallifi pedagogik mahoratni shakllantirishni olimlarning turli xil fikrlari va qarashlari bilan ilmiy asoslab bergan.*

Kalit so'zlar: *mahorat, bilim, faoliyat, individual, pedagog, kompetensiya, talim, qobiliyat, jihat.*

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, mukammal, yangicha fikrlaydigan, komil insonni davr talabiga mos qilib tarbiyalashda o'qituvchi va pedagoglarning o'rnini beqiyosdir. Zera davlatimizda olib borilayotgan talim sohasidagi bir qancha vazifalarni bajarishning ko'p jihatlari o'qituvchiga uning ilmiy salohiyati, kasbiy ijodi, pedagogik mahorati va kompetensiyasiga bog'liqdir. Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning malumotini, malakasini oshirish kabi poyasalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Talim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda o'qituvchi o'quvchilarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak. Shu sababli ham o'qituvchi va pedagogda pedagogik mahoratni shakllantirish pirovard maqsadlarimizdan biridir. Talim to'g'risidagi qonunda "kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega" ekanligi takidlanadi.

Sharq mutafakkirlari o‘z davrlarida Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Xojib, Sadiy She‘roziy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o‘qituvchilik kasbi uning mashaqqatlari shuningdek o‘qituvchi shaxsiga aks etishi zarur bo‘lgan sifatlar xususida qimmatli malumotlarni o‘z asarlarida qizg‘in bayon qilganlar. Jumladan, buyuk allomalardan biri Abdurahmon Jomiy o‘z asarlarida tarbiyachi-muallim faoliyatida quyidagicha tarifi keltirilgan “muallim bilimli, aqlli, adolatli, o‘zida butun yuksak fazilatlarini mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam, hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi” deydi. Demak, har tomonlama yetuk bo‘lish bilan bir qatorda manaviy boy, tarbiyali, odobli va barchaga o‘rnak bo‘lishi kerak.

Hozirgi kungacha pedagogik mahorat va kasbiy omilkorlik bo‘yicha respublikamizda T.Sattorov, N.Muslimov, N.T.Omonov N.X. Xo‘jaev S.A.Madiyorov E.U.Eshchonovlar ilmiy ishlar olib borganlar.

Yevropa olimlaridan kasbiy mahoratni shakllantirish masalalari Ya.A. Komenskiy, T.F. Kuzina N.V. Kuxarev S.V.Elkanov V.I. Zagvyazinskiy A.S.Belkin A.K.Markova, D.Lokk, I.G.Pestalotssi, A.Disterveg, K.D. Ushinskiy kabilarning asarlarida o‘z ifodasini topgan.

G‘arb olimlaridan Alatis, Bellack, Britten, Byrne, Goodman, Freeman, Protherough, Revel, Soltis, Strevens kabilar pedagogik mahoratni ayrim jihatlarini ishlab chiqqanlar.

Pedagogik mahorat haqida olimlar turlicha fikrlar bildirganlar:

M.I.Doyachenko fikricha, pedagogik mahorat bu o‘qituvchi kasbiy faoliyatining yuqori darajasidir. V.A. Slasten tarificha, pedagogik mahorat shaxsni kasbiy yo‘nalishdagi yuqori ko‘rinishidir, har qanday faoliyat mahoratning asosini ko‘rsatgan, uning fikricha maxsus umumlashgan malakalarni egallaganligidir. A.Disterveg esa o‘qituvchining talimdagi rolga yuqori baho berib, u o‘z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi, o‘quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi, deb uqtiradi. O‘qituvchi

bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini, faoliyatlarini mukammal bilishi uchun psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini aytadi [4, 42].

Demak, pedagogik mahoratni shakllantirishda psixologik bilimlarga ham ega bo'lish lozim. Ayniqsa chet tilini o'qitishda va o'rgatishda psixologiyaning o'rni beqiyosdir, chunki dars berish jarayonida guruhlarda turli xil yoshdagi talabalar bo'lishi, ularning bilim darajalari va o'rganish uslublari ham har xil bo'lishi va xarakterlari turlichaligi psixologik yondashuvni talab etadi. Xolbuki, bo'lajak chet tili o'qituvchilarning o'z fanini yaxshi bilishi bilan birgalikda psixologiyani mukammal bilishlari dars samaradorligiga erishishiga yo'l ochadi. Jumladan, o'rganish uslubini tahlil qiladigan bo'lsak, bazi talabalar ko'rganda yaxshi eslab qoladilar (visual learner), boshqa talabalar esa eshitganda (auditory learner), aksariyat talabalar harakat orqali topshiriqlar bajarganda (kinesthetic learner) ko'proq esda olib qoladilar. Shu sababli o'qituvchi pedagog dars rejasini shakllantirayotganda barcha turdagi o'rganish uslubini turli xil topshiriqlar orqali darsga tadbiiq qilishi darkor. Masalan: ko'rib eslab qoluvchilar uchun:

- turli xil mavzuga doir kartochkalar, rasmlar, diagrammalar;
- o'rganayotgan tilda kino va multfilmlarni ko'rsatish
- talim vositalaridan foydalanish

Eshitib yoki tinglab eslab qoluvchilar uchun:

- o'rganayotgan tilda radio yangiliklarini tinglash
- tinglab tushunish mashqlarini ko'proq bajarish
- taqdimot va leksiyaalarga qatnashish

Harakat orqali o'rganuvchilar uchun:

- proekt ishlarini bajarish
- eksperiment ishlarini tashkil etish
- sahna ko'rinishlarida ishtirok etish
- turli xil topshiriqlarni bajarish

Yuqorida keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, pedagogning kasbiy va pedagogik bilimdonligi kreativlik bilan xarakterlanadi. Kreativlik deganda pedagogning kasbiy bilimdonligini talim jarayoniga yangi pedagogik voqelikni

yaratish malakasi tushuniladi. Bu esa pedagogning yuksak natijalarga erishishni taminlaydi.

Demak, chet til o‘qitishda quyidagi pedagogik qobiliyat va mahoratlar zarur:

- o‘quv materiallarini, mavzuni aniq va oson qilib tushuntirish;
- talaba-o‘quvchilarga fanga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyani uyg‘otish;
- mustaqil, faol, yangicha fikrlashni tashkil etish;
- yosh psixologiya va pedagogik psixologiya asoslarini bilish;
- o‘z fanini o‘qitish metodikasini puxta bilish;
- tilni mukammal bilish;
- pedagogik faoliyatda qobiliyatli, ijodkor, kreativ bo‘lish;
- dunyoviy bilimlarni egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, manaviy barkamol bo‘lmog‘i;
- erkin va ijodiy fikrlaydigan, talabchan va adolatli bo‘lish.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash joizki, pedagogik mahorat bu egallangan metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur, ongli, ijodiy va kompetensiyaviy yondashuv hamda psixologiyaning mukammal bilish, kreativ qobiliyatini shakllantirish jarayonlaridan tashkil topadi. Pedagogik mahoratga ega o‘qituvchi o‘z fanini hozirgi davr talablari asosida puxta bilishi, shu bilan bir qatorda pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini o‘zlashtirishi va fidoiyligni o‘zida mujassam etishga intilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tadbqiq etishning tashkiliy asoslari //Xalq ta’limi j., 1999, 6-son, – 4-6-b.
2. Sayidahmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: RTM, 1999. – 55 b.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbqiqiy asoslari. – T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI, 2006. – 261 b.

4. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darsliklar / A.A.Xoliqov. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi. – T: Iqtisod-Moliya, 2011. – B.420.